

PEDAGOGIK KREATIVLIK VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Muhammadiyeva Zarinabonu

Anatatsiya : Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilishi , ilmiy – tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi . Pedagog o'z o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi . Uning ijodkorlikka qobiliyati ma'lum vaqt ichifa izchil o'qib – o'rganish , o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta – sekin takomillashib , rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faolyatni tashkil etishda izchil rivojlantirilib boriladi.

Tayanch so'zlar: kreativlik , kreativlikni rivojlantirish , kreativ potensial , pedagogik kreativlik , pedagogik kreativlik potentsiali , pedagogning kreativ potentsialini aniqlovchi mezonlar

Kirish

Kreativlik (lot.,ing."create"-yaratish,"creative" -yaratuvchi,ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayerlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati .

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.Qolaversa,kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi.

P.Torrens fikricha,"kreativlik" tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi: Boshqa har qanday sifat kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Odatda kreativlik bolalarning faolyatida tez – tez ko'zga tashlansada , biroq , bu holat bolalarning kelgusida ijodiy

yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab – quvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish;

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

1) o'zini tavakkaldan olib qochish

2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollika yo'l qo'yish;

3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

4) boshqalarga tobe bo'lish;

5) har qanday holaatda ham faqat yutuqni o'ylash

Asosiy qism

Pedagogik kreativlik-pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashda farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muommolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarlik.

Pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy-faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorgarlikni ifodaydi.

Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Kreativ potensial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Pedagogning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi.

-tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;

-yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;

-bir qolibda fikrlamaslik;

-o'ziga xoslik;

-tashabbuskorlik;

-noaniqlikka toqat qilish;

-zakovatli bo'lish

Pedagog kreativlik potensialiga ega bo'lish uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratish zarur:

-kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;

-yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;

-ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;

-hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish

Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishni va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

Kreativlik darslarida bo'lajak pedagoglar birgina "to'g'ri" javobni izlash o'rniga o'zlarini erkin va xotirjam sezishlari va yuzaga kelgan muammolarga turli yechimlarni izlab topishlari maqsadga muvofiqdir. Qancha ko'p g'oya va fikrlarni o'rta tashlasalar, shuncha ko'p g'oyalar kreativ bo'ladi (Simonton, 1999). O'quvchilar "Aqliy hujum" metodidan foydalanganlarida noaniqlikka duch kelishlari mumkin. Bo'lajak pedagoglarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish va keyinchalik ularni mustaqil "sayohatga"

qo'yib yuborish ularda kreativ va hattoki noaniq bo'lsada, turli g'oyalarni o'ylab topishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi. Chakdjons aytganiday "Qo'rquv hissining yuzaga kelishi kreativlikka asoslangan har qanday ishda mavjud; havotir kreativlikning xizmatkoridir"(Goleman, Kaufman, Ray, 1992). Bo'lajak pedogoglarni yo'naltirish, o'qituvchiga bog'liq bo'lib qolmay, ularda avtomatik ravishda harakat qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Yuqori sinf o'quvchilari yoki yuqori kurslarning malakali bo'lajak pedogoglari jarayoni kichik alohida qism va bosqichlarga, yosh va tajribasiz bo'lajak pedogoglarni ruhlantirib, bu esa o'z o'rnida kreativlik ko'nikmasining shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. O'qituvchilar bo'lajak pedogoglarni manbalar bilan ta'minlash, maslahat berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularning progress va muvaffaqiyatini aniqlashda mezonlarni ishlab chiqishda murabbiy sifatida xizmat qiladilar. Shuningdek, yuqori kurs bo'lajak pedogoglari nafaqat ichki kreativlikni shakllantirish, balki kichik guruhlarda ishlash, kreativlik va sharhlar berishga qiziqтира oladilar ham (ong sayohati, tasavvur chegarasi, kelajakdagi muommolarni yechish, yangilik ochmoq va kashf etmoq)".

Kreativlik potensialiga ega pedogog o'zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- masalaning qo'yilishini tahlil qila olish;
- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.) larni qo'llash;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish ;
- masalani hal qilishda kichik tadqiqot(izlanish)ni olib borish ;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayoning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.

Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potentsialini yanada rivojlantiradi. Natijada pedogog:

-ijodiy fikrlashga odatlanadi;

-ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko'nikmalarini puxta o'zlashtiradi; pedogogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg'or foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;

-pedogogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi. Pedogoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar va tamoyillar.

Bo'lajak pedogoglarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor shaxs bo'lish zarur. Bordi-yu, uning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'lmasa, u holda qanday qilib, bo'lajak pedogoglarni kreativ fikrlashga rag'batlantira oladi.

Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor bo'lsagina, bo'lajak pedogoglar ham shunday bo'la oladi. O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur. Darslarda o'qituvchi "kreativlik yo'l xaritasi"ga ko'ra quyidagi 4ta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedogoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drepreau) sanaladi: ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish; bo'lajak pedogoglarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish; kutiladigan natija.

Pedogogning kreativlik potentsiali ko'p darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanadi. Muommoli harakterga egalik ijodiy yo'naltirilganlik imkoniyatlarni oshirib borish individuallikka erishish kreativlikning yorqin namoyon bo'lishi bir butunlik, izchillik, tizimlilik.

XULOSA

Kreativlik hozirgi kunda judayam, ayniqsa O'zbekistonda tanqis, kam uchraydigan narsalardan biri hisoblanadi. Bunga sabab ko'pchilik pedagog o'qituvchilarni o'z ustida ko'p ishlamasligida deb aytsak bo'ladi. Kreativlik uchun qobiliyat tug'ma bo'lishi kerakmi degan savol tug'iladi. Qaysidir manoda albatta kerak bo'ladi. Lekin hammasi mehnatga, o'z ustida ishlashga borib taqaladi. Kreativ-pedagog har tomonlama rivojlangan, har bir darsni qiziqarli o'ta oladigan, yangi metodlar va texnikalardan xabardor va barcha o'quvchilari uchun sevimli bo'lgan mahoratli ustoz. Uning darslari g'aroyib g'oyalarga boy!

Shuni unutmaslik kerakki, bugungi jamiyat bir xillikdan zerikdi. Endi faqatgina kreativ o'ylagan insongina hammadan ajralib tura oladi. Chunki Kreativlik- bu cheklash mumkin bo'lgan tushuncha emas. Uni rivojlantirish har birimizning qo'limizda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Muslimov N. A va boshqalar . “ Kasb ta’limi va o’qituvchining kasbiy kompetentligini shakillantirish texnologiyasi “ Monologiya – T: “fan va texnologiya “ nashriyoti 2013
- 2) Muslimov N.A. Inoyatev U. I. Usmonboyeva .M. Inogomova D . “Pedagogika : 1000ta savolga 1000ta javob “ metodik qo'llanma – T :Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012.
- 3) Movlonova P. A. {va boshqa (2016) Pedagogika . Darslik – T : “Navro'z”